

O‘QUVCHILARNING KASB TANLASHLARIDA YUZAGA KELADIGAN TO‘SIQLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Xudoyqulova Nigora Abdug‘aniyevna

Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani

31- sonli umumta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Kasblar ko‘p, lekin ular orasidan sevimli kasbni tanlashimiz– bu hayotga qo‘ygan ilk qadamimiz hisoblanadi. Har bir inson dunyoga kelibdiki, hayotda o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi bo‘ladi. Bu maqsad orqasidan nimalarga erishish mumkin? Hayotda o‘zi xoxlagan narsalarga erishishi, buning natijasida baxtli yashashi mumkin. Sevimli kasbni tanlashda avvalo odam o‘zining his-tuyg‘ulariga e‘tibor berishi lozim. Odam jamoat oldida o‘zini tutishi ham muhim o‘rin egallaydi. Odamlar bilan bevosita aloqada bo‘ladiganlar shirinso‘z va gapga usta bo‘lishi kerak. Shunda ish vaqtida har bir gapga javob topib keta oladi. Masalan, shifokorlarni oladigan bo‘lsak, ular sovuqqon bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Chunki, shifokorda achinish tuyg‘usi bo‘ladigan bo‘lsa, bemorga to‘g‘ri yordam ko‘rsata olmaydi. O‘qituvchilarni oladigan bo‘lsak, ular o‘quvchilarni darsga, o‘ziga va atrofdagi narsalarga qiziqtirib qurishi kerak. Shunda shu o‘qituvchining darsi doimo qiziqarli, mazmunli va har doim bolalarni o‘ziga jalb qiladigan bo‘ladi. Yoshlarni o‘zi yoqtirgan kasbga qanday jalb qilsa bo‘ladi?

Kalit so‘zlar: xodim, xodim, jamoa, kasb, mehnat, tasavvur, tanlash, muammo, ruhiyat, baxt, maqsad, ruhiyat, psixika

KIRISH

Respublikamizda turli kasblarga qo‘yilgan talablar O‘zbekiston Respublikasi “Mehnat kodeksi”da ham o‘z aksini topgan. “Xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan sharoitlarda mehnat qilish; Kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish». Avvalo hamma yoshlar ham o‘zi qiziqqan sohasini to‘liq bilmaydi, ya’ni, kasblar haqida to‘liq ma’lumotga ega emas. Buning uchun o‘qituvchilar ko‘magida, ishini sevuvchi va o‘z ishini ustasi bo‘lgan xodimlar bilan uchrashuvlar, “ochiq eshiklar kuni” kabi ochiq muloqotlarda o‘quvchi yoshlarga kerakli bilimlarni berish lozim. Bunda o‘qituvchilar qanday yordam berishadi, – degan savol tug‘ilishi tabiiydir. Suhbat o‘tqazgan ishchi xodim suhbatidan o‘quvchi ruhiyatiga bog‘liq bo‘lgan tomonlarini aytib o‘tish, o‘quvchi bilan individual ishlash va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda o‘quvchi yoshlarga maslahat berish kerak bo‘ladi. Bu ishni ko‘proq sinf rahbarlari va psixolog o‘qituvchilarga topshirish tavsiya etiladi.

Negaki, o‘quvchi ichidagi gaplarini hammaga ham aytavermaydi. Agar o‘quvchi bilan ko‘proq suhbat o‘tkazilsa, bunday hollarda o‘quvchi o‘qituvchiga ishonishni boshlaydi. Buning orqasidan uning nimaga qobiliyati bor, nimaga ko‘proq qiziqadi degan

savollarga javob olish mumkin, lekin shu narsani esdan chiqarmaslik lozimki, bunday vaziyatda har bir aytilgan gap o'quvchini yo ishontiradi yo butunlay o'z qobig'iga o'ralib olishiga sabab bo'ladi. Bu qobiqni hammaga ham ochavermaydi.

O'quvchi o'smirlik davrida hammaga narsaga tanqidiy ko'z bilan qaraydigan, hammaga ham ishonavermaydigan bo'lib qoladi. Psixolog shunaqa o'quvchilar bilan gaplashganda uning har bir so'ziga ishonishni boshlaydi. Shu tariqa o'quvchi o'z qiziqishlarini bilib olishga intiladi. O'quvchi uchun hamma kasblar haqida to'liq ma'lumot berilganda, uning fikri o'zgarib, o'zini boshqa kasblarda namoyon qilishi aniq bo'ladi.

Nega biz tanlaydigan kasbimizni sevishimiz kerak; ishlasak, pul topsak, oila tebratsak bo'ldimasmi? degan savollar o'smirlarda ko'p paydo bo'ladi. Biz o'z kasbimizni sevishimiz orqali kasbiy toliqishni orqaga surishimiz mumkin. O'zimizga yoqadigan kasbni egallashimiz orqali hayotdan rozi bolib yashaymiz. Ammo muammoning ikkinchi tomoni ham bor, moddiy tomondan qiynalsak, unda nima bo'ladi? Tasavvur qilaylik, oldimizda ikkita tanlov turibdi. Birinchisi sevimli kasbimiz va yana bitta kasb. Sevgan kasbimizdan qoniqamiz, lekin moddiy tomondan qiynalishimizni bilamiz. Ikkinchi kasbda esa sevmaymiz, lekin ishlasak bo'ladi. Moddiy tomondan ham qiynalmaymiz. Shu vaziyatda ikkinchisini tanlab qolganiga e'tibor bermasak, tez orada, ya'ni 30-45 yoshlar oralig'ida kasbiy toliqish paydo bo'ladi. Odam o'zini kasbini sevmaganidan keyin o'zini ustida ishlaganini foydasi kam bo'ladi. Bunday vaziyatda nima qilishim kerak?

To'g'ri hozirgi tez o'zgarib ketayotgan zamonda moddiy tomondan yetishmovchilik bo'lishi ancha orqada qolishga sabab bo'lishi turgan gap. Ayniqsa hozir ko'pchilik yurishturishingga, kiyinishingga va topayotgan daromadiga qarab muomala qilishadi. Shuning uchun bu yerda berilgan ikkinchi kasbni tanlab, sevgan kasbimizni tashlab qo'ymasligimiz kerak. Moddiy tomondan o'zimizni qoniqtiradiganini tanlab, sevgan kasbimizni shunchaki qiziqish bo'lsa davom ettirish mumkin. Sevgan kasbimizdagi yutuqlarimiz tufayli kasbiy toliqishni anchagini orqaga suramiz. Sevgan kasbingiz hech qachon armon bo'lib qolmasin, chunki 45-50 yoshga kirib "Eh, shu ishni qilganimda hozir baxtli yashardim.

Moddiy tomondan ozgina qiynalsam ham o'tib ketardi", - deb qolishingiz turgan gap. Buni eslab har safar ezilish, qila olmagan ishlaringizni keyinchalik farzandlaringiz, nabiralaringiz egallashini hohlashingiz orqali ularni ham o'zingiz singari afsuslanadigan qilib qo'yishingiz mumkin. Ularga faqatgina "Shu kasbni taklif qilaman", - deb tavsiya berishingiz orqali juda katta yordam bergan bo'lasiz. Hamma shunaqa maslahat berib, bu kasb orqali erishilishi mumkin bo'lgan yutuqlarni sanab va oxirida "Bu senga oddiygina maslahat, bunaqa yutuqlarga hamma sohada erishsang bo'ladi. Men faqat shu sohani bilganim uchun shu soha haqida gapirdim. Tanlov o'zingni qo'lingda", - deydi bo'lsak o'smir kasb tanlashda qiynalmay o'z yo'lini osongina topib ketadi. "O'z qobiliyatlarini oqilona baholay olmasliklari tufayli u yoki bu kasbni egallash uchun qanchalik tez va aniq harakat qila olishlarini, bu ishga moslasha olishlari mumkunligini bilmaydilar. Biroq

mazkur ko'ngilsiz holatlarning oldini olish va bartaraf etish imkoniyatlari mavjud."Endi kasb tanlashni huquqiy va qonuniy tomonlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak." Mehnat faoliyatida amaliy ko'nikmalar barqarorlashadi,nazariy fikr ,g'oya,mulohaza vujudga keladi.Mehnat faoliyati individual xususiyat kasb etsada,lekin uning mohiyati ijtimoiydir"

XULOSA

Mehnat qobiliyati– xodimning sog'ligidagi holatdan kelib chiqib, uning qanday ish baja olish qobiliyatiga aytiladi. Ish ko'lamiga qarab to'liq mehnat va cheklangan mehnat qobiliyati mavjud. 16 yoshga yetgan har bir fuqaro mehnat qobiliyatiga ega deb qaraladi. Uni ishga qabul qilish mumkin. Ishga qabul qilishda istisno tariqasida 15 yoshga to'lgan o'smirlar ham mehnat qobiliyatiga ega deb e'tirof etiladi. Qonunga binoan 14 va 15 yoshga to'lgan shaxslar ota-onasining biri yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxsning yozma roziligi bilan ishga qabul qilinishi mumkin. Yoshlarni mehnatga tayyorlash maqadida umumtalim maktablari va o'rta maxsus, kasbhunar yurtlarining 14 yoshga to'lgan o'quvchilarini ota-onalaridan birining yoki ularni o'rnini bosuvchi shaxsning yozma roziligi bilan o'quvchi sog'ligiga, kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan va ta'lim jarayonini buzmaydigan yengil ishlarni o'qishdan bo'sh vaqtlarida bajarish uchun ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. E.G'oziev. Ontogenez psixologiyasi. "Noshir", -T.:2010.
2. E.G'oziev. Psixologiya. -T.: 2010. 76-bet.
3. Internet materiallari
4. Ziyo.net